



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 791 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umda	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector.....	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста.....	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжонова	
O'zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	
Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	528
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan	535
Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu	



Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....	541
Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования	547
Усманова Мухлиса Сагдуллаевна	
Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....	555
Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich	
Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni	560
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari	565
Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия	570
А.И. Лесников, Д.В. Мамаева	
Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику	580
Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи	
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	586
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva Maxliyoxon Xayrullayevna	
Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari	591
Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li	
The main directions for improving innovative activities in agriculture	598
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi	605
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari	610
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar	615
Boymatov Xoliyor Qurbonovich	
Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan	621
Alimov Ilhomjon Ikromovich	
Проблемы и резервы развития пищевой промышленности в экспортном направлении.....	628
Ўролова Севара Бехзод кизи	
Оценка степени риска инновационной деятельности	634
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari.....	638
Maxkamova Sayyora Shokirovna	
Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	641
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Soliq ma'murchiligida nazorat funksiyasi va unda kameral soliq tekshiruvi hamda takomillashtirish yo'llari.....	648
Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li	
Sanoat korxonalarida xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari	653
Safarov Javohir Ismoilovich	
Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish masalalari	659
G'aniyev Zafar Usanovich	
Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi faoliyati.....	666
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
Tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir qiluvchi omillar	670
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	
Tourism finance for sustainability: investing in green futures	674
Tashpulatov Sadriddin Sayfulloyevich	



Ta'lim jarayonlarini boshqarishda mobil texnologiyalar	681
Esonova Mohiraxon Sodiqjon qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Sherzodbek Nabiyev Nurmuhammad o'g'li	
Banklarda risklarni nazorat qilishning amaliyoti	686
Jumanazarov Muzaffar Jumanazar o'g'li	
Налоговые реформы в Узбекистане: вызовы, достижения и перспективы	692
Садиков Искандар Гайратович, Буранова Лола Вахобовна	
Turizm xizmatlari samaradorligini baholash usullari va vositalari tahlili	704
Jiyanov Uktam Panjiyevich	
Korxona va tashkilotlarda xodimlarni boshqarish strategiyasi	712
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyati	716
Dusmaxamedov Abduljalil Abdusabirovich	
Davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirishning foydali jihatlari	720
Z.D. Sanjarov	
The role and main types of agricultural tourism in Uzbekistan	724
M.Xolmuratova, G.N.Tojiyeva	
Цифровые технологии как драйвер повышения эффективности банковского маркетинга	727
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
Потребительская стоимость товаров в условиях экономики Узбекистана	735
Мусаева Шоира Азимовна	
Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosatining ahamiyatini oshirish	739
Yahyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
Yangi o'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati	744
Azimova Shoxista Salohiddinovna	
Improving the methodology for assessing the financial stability of banks	750
Sharipova N.H.	
Инструменты стратегического планирования и прогнозирования в управлении ООО "МТЕ ТЕХНИК": оценка и повышение финансовой стабильности	757
Нишоновна Муниса Одилжон кизи	
Актуальные вопросы налоговой политики	763
Бердыева Угулой Абдурахмоновна	
Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	768
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Jizzax viloyatida ekologik, rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uni prognozashtirish	773
G'apparov Azim Qayumovich	
Qashqadaryo viloyatida ekologik va yashil texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar	781
Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li, Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich	
Biznes subyektlari auditida soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulini qo'llash xususiyatlari	786
Tajekeev Ziyatdin Kobeysinovich	



BIZNES SUBYEKTLARI AUDITIDA SODDALASHTIRILGAN MOLIYAVIY HISOBOT TAYYORLASH USULINI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

Tajekeev Ziyatdin Kobeyzinovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dosenti, i.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0009-0009-3995-4753

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditorlik tekshiruv faoliyatida 520-sonli Tahliliy amallar nomli auditning xalqaro standartini biznes subyektini auditorlik tekshiruviga tatbiq etishda soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash (vertikal tahlil) usulini qo'llash xususiyatlari yoritib berilgan. Xususan, tahliliy amallardan foydalanish orqali auditorlik amallar hajmini maqbullashtirishdagi o'rni hamda muayyan mulohazalarni shakllantirishga asos bo'lishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulini qo'llash bosqichlari, shartlari, bu usulning afzalliklari va foydalanish tartiblari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: audit, auditning xalqaro standarti, tahliliy amallar, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usuli.

Abstract: This article discusses the features of applying the common-size financial statements method (vertical analysis) during an audit of a business entity in accordance with International Standard on Auditing No. 520 Analytical Procedures. In particular, the importance of analytical procedures in optimizing the scope of audit actions and forming certain judgments are disclosed. The stages, conditions, advantages and procedure for applying the method of preparing common-size financial statements are also considered.

Key words: audit, International Auditing Standard, analytical procedures, method of preparing common-size financial statements.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности применения метода подготовки упрощённой финансовой отчётности (вертикальный анализ) в ходе аудиторской проверки бизнес-субъекта в соответствии с Международным стандартом аудита № 520 «Аналитические процедуры». В частности, раскрывается значение аналитических процедур в оптимизации объёма аудиторских действий и формировании определённых суждений. Также рассматриваются этапы, условия, преимущества и порядок применения метода подготовки упрощённой финансовой отчётности.

Ключевые слова: аудит, Международный стандарт аудита, аналитические процедуры, метод подготовки упрощённой финансовой отчётности.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida 25.02.2021-yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son¹ yangi Qonunning qabul qilinishi audit sohasida yangicha yondashuvlarning vujudga kelishiga hamda milliy auditorlik kompaniyalarining xalqaro audit munosabatlariga tobora integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Bu esa auditorlik faoliyati sohasida auditning xalqaro standartlarini (AXS) joriy etishni yanada jonlantirish, sohada kuchli bilim va malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, ilg'or xalqaro auditorlik kompaniyalari tajribasini milliy auditorlik kompaniyalari amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etishni kuchaytirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.04.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-son² qarori asosida, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditning xalqaro standartlari, sifat nazorati, tahliliy tekshirishlar, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar hamda turdosh xizmatlar bo'yicha xalqaro standartlar milliy auditorlik faoliyatida qo'llashga qabul qilingan.

1 <https://lex.uz/docs/-5307886>

2 <https://lex.uz/docs/-5952173>



Hozirgi paytda auditorlik kompaniyalari tomonidan mazkur standartlarni qanday darajada qo'llab kelinayotganligi bo'yicha aniq va tizimli ma'lumotlar yetarli emas. Shu bois, AXSni amaliyotda qo'llashda milliy manbalarda keltirilgan audit amallari tavsifi va audit tekshiruvlarini sifatli o'tkazish bo'yicha ko'plab masalalar hanuz o'z yechimini kutmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditda tahliliy amallar usullari haqida O'zbekistonlik va xorijlik ko'plab olimlar o'z fikr va mulohazalarini bildirib kelishmoqda.

Tahliliy amallar muhim nisbatlar va tendensiyalarni tahlil qilishdan iborat bo'lib, natijada boshqa tegishli ma'lumotlarga mos kelmaydigan yoki taxmin qilinadigan miqdorlardan og'ishadigan tebranishlar va nomuvofiqliklarni aniqlashga xizmat qiladi³. Tahliliy amallar auditda muhim dalil shakli bo'lib, moliyaviy va nomoliyaviy axborotlar o'rtasidagi ishonchli bog'liqliklarni tahlil qilish orqali moliyaviy axborotlarni baholash imkonini beradi⁴. Bunda auditor schyot qoldiqlari yoki boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarning kutilmalariga mosligini taqqoslash va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanadi⁵.

I.V. Panina, L.S. Korobeynikova va S.N. Komendenkolar tahliliy amallarni amalga oshirishda oddiy taqqoslashdan tortib murakkab usullargacha bo'lgan turli texnika va metodlardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi⁶.

Rick Hayes va hammualiflar esa umumiy tahliliy amallar tarkibiga trend tahlili, koeffitsientlar tahlili, statistik va data mining tahlillari hamda mantiqiylik sinovlari kirishini qayd etishgan. Ularning fikriga ko'ra, qaysi turdagi tahliliy amal mos kelishini aniqlash – bu professional mulohaza masalasidir. Amaliyotda esa oddiy yondashuvlar – masalan, taqqoslash va koeffitsientlar tahlili – ko'proq qo'llaniladi. Bular murakkab statistik usullarga, masalan, vaqt qatorlarini modellashtirish yoki regressiya tahliliga qaraganda ancha sodda va tez-tez ishlatiladi⁷.

Tahliliy amallar usullari, shuningdek, ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ularni avvalgi davr ma'lumotlari bilan taqqoslash, kutilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirish, og'ishlarni aniqlash va ularning sabablarini aniqlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlar ko'plab ilmiy manbalarda ham alohida ta'kidlab o'tilgan⁸.

Auditning xalqaro standartlaridan biri – 520-son AXS "Tahliliy amallar" (Analytical Procedures) – eng ko'p qo'llaniladigan va audit jarayonining deyarli barcha bosqichlarida dolzarbligini saqlaydigan standartlardan biridir. Mazkur standartga ko'ra, tahliliy amallar quyidagi holatlarda qo'llaniladi⁹:

Korxona va uning muhiti haqida tushunchaga ega bo'lish uchun risklarni baholash amallari doirasida;

Mohiyatan tekshiruv amallari qo'llanilganda, muhimlik riskining yuqori darajasidan qabul qilinadigan pastroq darajaga tushirishda, batafsil tekshiruvga nisbatan samaraliroq vosita sifatida;

Audit yakunida, moliyaviy hisobotlarni umumiy ko'zdan kechirish maqsadida.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan biznes subyektlarining sodda moliyaviy hisobot shakllaridan, ularning audit natijalari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan to'plandi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili hamda taqqoslama va statistik tahlil usullari orqali chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahliliy amallar ichida soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish usuli (vertikal tahlil) audit jarayonida umumiy o'lchamdagi moliyaviy hisobotlarni kompaniyalararo yoki bir kompaniyaning turli vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlarini taqqoslash imkonini beradi. Ushbu usul tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi hamda korxonaning raqobatchi subyektlarga nisbatan qanday darajada joylashganligini ko'rsatadi.

3 IFAC, 2004, Handbook of International Auditing, Assurance, and Ethics Pronouncements, International Standardson Auditing 520, Analytical Procedures, para.3, International Federation of Accountants, New York.

4 Aasmund Eilifsen, William F. Messier JR., Steven M. Glover and Douglas F. Prawitt. Audit and assurance services. Third international edition. Mc Graw Hill education. Printed and bound in Great Britain by Ahford Colour Press Ltd. P 140

5 Alvin A. Arens, Randal J. Elder, Mark S. Beasley. Auditing and assurance services: an integrated approach / 2010 by Pearson Education, Inc. Fifteenth edition – P 223

6 В. Панина, Л. С. Коробейникова, С. Н. Коменденко. Основы аудита / Учебник – Вороноёж.: Издательский дом ВГУ, 2023. – С 223

7 Rick Hayes Roger Dassen Arnold Schilder Philip Wallage. PRINCIPLES OF AUDITING An Introduction to International Standards on Auditing / textbook. Second edition published by Pearson Education Limited © Pearson Education Limited 2005. P 347

8 Keshari, Chinmaya, Sahoo, Muvvala, Sudhakar, Venkata, Ramana, Satyanarayana, Kanhu, Charan, Panda (2018). Validation of Analytical Procedures- A Review.

9 ifac.org/system/Files/downloads/2008_Auditing_Handbook_A140_ISA_520.pdf.



Mazkur usulning bajarilishi texnik jihatdan moliyaviy tahlil fanidagi “vertikal tahlil” usuli ko‘rinishida amalga oshiriladi. Vertikal tahlil odatda korxonaning balans hisobotiga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq audit amaliyotida ushbu usul foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot hamda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotga nisbatan ham qo‘llaniladi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni vertikal tahlil qilish orqali korxonada kapital xarajatlar va qarzni to‘lash kabi aniq operatsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli pul mablag‘lari mavjud yoki yo‘qligi aniqlanadi¹⁰.

Soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish orqali tahliliy amallarni o‘tkazish bir qator afzalliklar bilan birga, ayrim kamchiliklarga ham ega. Bu afzalliklar va cheklovlar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Tahliliy amallarda soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish usulining afzalliklari va kamchiliklari¹¹.

Afzalliklari	Kamchiliklari
Tahliliy ma‘lumotlarni tezda ko‘rish, o‘zgarishlarni tezkor farqlashga va ularni kuzatib borish imkonini beradi	Sotilgan tovarlarning tannarxini oshirishga yoki pasaytirishga olib keladigan turli xil komponentlarning qiymat darajalaridagi o‘zgarishlarga ta‘sirini ko‘rsatmaydi
Davrlar bo‘yicha tahlil qilishga va moliyaviy hisobotning har bir elementini tahlil qilishga yordam beradi.	Agar buxgalteriya hisobi standartlari yoki buxgalteriya hisobi usullari farqli yillar uchun turlicha qo‘llanilsa yoki o‘zgarsa ko‘rsatkichlarni taqqoslash imkonini ta‘minlamaydi
Korxonaning ichki ma‘lumotlarini va korxonalararo tahlil qilish imkonini beradi. Raqobatchilar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslashlar orqali ustunlikka ega bo‘lishga imkon beradi	Agar mavsumiy tebranishlar yoki biznes tsikllari tufayli katta miqdordagi foyda yoki zarar bo‘lsa, u haqqoniy taqqoslashni ta‘minlamaydi.

Quyidagi 2-jadvalda “ABS” AJning 2020–2023-moliyaviy yillar ko‘rsatkichlari bo‘yicha moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlari vertikal tahlil usulida keltirilgan. Soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulida sof tushum 100 % deb olinadi va hisobotdagi boshqa moddalar ko‘rsatkichlari unga nisbatan hisoblanadi. Odatda, ko‘pchilik biznes subyektlarida sof tushumda o‘zgarishlar tez-tez yuz beradi. Shu bois, tahliliy amallarda moliyaviy natijalarga oid ko‘rsatkichlarni dastlabki tahlillarda soddalashtirilgan hisobot tayyorlash usulidan foydalanish biznes subyektida kechayotgan moliyaviy jarayonlarni aniqlashga yordam beradi. Auditor tomonidan biznes subyektini dastlabki tahliliy amallar orqali o‘rganish, kelgusi audit bosqichlarida batafsil audit amallari va nazorat testlari hajmini qisqartirish imkonini beradi. 2-jadval ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2020–2021-yillarda mahsulotlar tannarxi 2022–2023-yillarga nisbatan past bo‘lgan. Xususan, 2023-yilda tannarx sof tushumga nisbatan 95,02 % ni tashkil qilgan. Tannarxning ortishi, tabiiy ravishda, yalpi foydaning kamayishiga olib kelganligi ko‘rinib turibdi. Davr xarajatlari tarkibida, ayniqsa, ma‘muriy xarajatlar 2023-yilda o‘tgan 2022-yilga nisbatan 2,9 barobar oshgan. 2020–2022-yillar oralig‘ida esa ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 2,2 % atrofida bo‘lgan. Shuningdek, foiz xarajatlari ham 2022-yilga nisbatan 3,4 baravar oshgani kuzatilgan. Auditor vertikal tahlil usuli yordamida auditorlik kutilmalariga mos kelmaydigan holatlarni aniqlab, biznes subyektini rahbariyati va moliyaviy menejerlar bilan suhbatlar o‘tkazishi zarur bo‘ladi. Xususan, tannarxning oshishiga ta‘sir qilgan omillar – materiallar narxlar, mehnat xarajatlari, ustama xarajatlar kabi manbalar tahlil qilinishi kerak. Shuningdek, davr xarajatlari tarkibidagi ma‘muriy xarajatlar va foiz xarajatlari oshishining sabablarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bundan oldin, auditor audit guruhi doirasida kreativ fikrlash metodlariga asoslangan aqliy hujum usulida ehtimoliy farazlarni shakllantirib olishi lozim. Bu yondashuv auditorlik mulohazalarini aniqroq asoslashda yordam beradi va tekshiruvni tizimli tarzda tashkil qilish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. “ABS” AJning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobotning soddalashtirilgan tahlili¹².

Ko‘rsatkichlar	2020 - y.		2021 - y.		2022 - y.		2023 - y.	
	Summa, ming so‘m (auditdan o‘tgan)	Sof tushumga nisbatan %da	Summa, ming so‘m (auditdan o‘tgan)	Sof tushumga nisbatan %da	Summa, ming so‘m (auditdan o‘tgan)	Sof tushumga nisbatan %da	Summa, ming so‘m (auditlanayotgan)	Sof tushumga nisbatan %da
Mahsulot (tovar, ish, xizmat) sotishdan sof tushum	108588668	100,0	79487852	100,0	116086947	100,0	37085877	100,0
Tannarx	99949426	92,04	71668789	90,16	109268111	94,13	35237859	95,02
Yalpi foyda	8639242	7,96	7819063	9,84	6818836	5,87	1848018	4,98
Davr xarajatlari:	6204319	5,71	7045768	8,86	12574789,4	10,83	5187290,6	13,99
Savdo xarajatlari	155775	0,14	43438	0,05	226691	0,20	62188,6	0,17

¹⁰ <https://analystprep.com/cfa-level-1-exam/financial-reporting-and-analysis/common-size-cash-flow-statements/>

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqildi. “ABS” korxona nomi shartli olindi.



Ma'muriy xarajatlar	1758525	1,62	2233649	2,81	2549914,6	2,20	2370142	6,39
Boshqa xarajatlar	4290019	3,95	492144	0,62	8201874,4	7,07	1219961	3,29
Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari	-	-	4276537	5,38	1596309,4	1,38	1534999	4,14
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	584115	0,54	819812	1,03	7253599	6,25	80169	0,22
Asosiy faoliyat foydasi	3019038	2,78	1593107	2,00	1497645,6	1,29	-3259103,6	-8,79
dividendlar	-	-	-	-	1766	0,002	-	-
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	2133627	1,96	1185148	1,49	846652	0,73	925624	2,50
Foiz xarajatlari	2133627	1,96	1185148	1,49	846652	0,73	925624	2,50
Umumxo'jalik faoliyat foydasi	885411	0,82	407959	0,51	652759,6	0,56	-4184727,6	-11,28
Soliq to'languncha foyda (zarar)	885411	0,82	407959	0,51	652759,6	0,56	-4184727,6	-11,28
Foyda (daromad) solig'i	183330	0,17	49036	0,06	97914	0,08	-	-
Sof foyda (zarar)	702081	0,65	358923	0,45	554845,6	0,48	-4184727,6	-11,28

Bizningcha, auditorlar tomonidan mazkur tahliliy amallar natijalaridan kelib chiqib quyidagi farazlarni ilgari surish mumkin:

1. Tannarxning oshishi xomashyo va materiallar narxlari hamda mehnat xarajatlarining sezilarli ortishi bilan izohlanishi mumkin.

2. Xarajatlarni tannarxga kiritish jarayonida uslubiy xatoliklar yoki atayin buzib ko'rsatish holatlari mavjud bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

3. Ma'muriy xarajatlar tarkibida noishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lgan xodimlarga to'lanadigan mehnat haqi xarajatlarining asossiz oshirilganligi yoki noto'g'ri ko'rsatilganligi ehtimoli mavjud.

4. Foiz xarajatlari aslida kapitallashishga yaroqli xarajatlar bo'lishi mumkin.

Ushbu farazlarni turli usullar yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Ishonchli audit dalillarini olishda tahliliy amallarni mohiyatan tekshiruv sifatida qo'llash ham mumkin. Bunday holatda tahliliy amallar – ayrim hisobvaraqlar qoldiqlarining ishonchligini tekshirish va tasdiqlashga xizmat qiladi.

Tahliliy amallarni mohiyatan tekshiruv sifatida qo'llashda auditor quyidagilarni inobatga oladi:

1. Ma'lumotlarning:

- mijozdan tashqaridagi mustaqil manbadan olinganligi;
- ularni tayyorlashga mas'ul shaxslardan mustaqil ekani;
- ishonchli axborot tizimi doirasida nazorat ostida tayyorlanganligi;
- joriy va oldingi davrlarda auditdan o'tganligi yoki o'tmaganligi;
- audit kutilmalari turli manbalarga tayangan holda ishlab chiqilganligi.

2. Auditor o'z kutilmasiga zid bo'lgan miqdorni qo'shimcha tekshiruvlarsiz qabul qilmasligi kerak.

3. Muhim, kutilmagan tafovutlarni baholashi lozim.

4. Rahbariyat bergan tushuntirishlar boshqa mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi talab etiladi.

5. Agar tafovutlar uchun asosli izoh mavjud bo'lmasa, auditor boshqa audit amallarini qo'llashi shart.

6. Izohlanmagan tafovutlar muhim xatolik riskini oshirishi mumkinligini auditor inobatga olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahliliy amallarning soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usuli auditorlar uchun tekshiruvning dastlabki bosqichidayoq muhim axborotlarni taqdim etadi. Audit guruhi ishni boshlagan paytdan boshlab, biznes subyektida kechayotgan moliyaviy jarayonlarga nisbatan miqdoriy baholashlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu usul auditorga o'z kutilmalariga mos kelmaydigan yoki g'ayrioddiy o'zgarishlarning sabablarini aniqlashda aynan qaysi hisob registrlari, dastlabki hujjatlar yoki boshqa moliyaviy ma'lumotlarga diqqatni jamlash lozimligini ko'rsatib beradi.

Mazkur usul audit guruhi rahbari va a'zolarining yuqori malakasi hamda professionalligiga tayangan holda audit farazlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot doirasida biznes subyekti balans moddolari bo'yicha ham tahliliy amallarni qo'llash orqali yanada ishonchli audit dalillariga erishish imkoniyati mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. IFAC, 2004, Handbook of International Auditing, Assurance, and Ethics Pronouncements, International Standardson Auditing 520, "Analytical Procedures", para. 3, International Federation of Accountants, New York.
2. Aasmund Eilifsen, William F. Messier JR., Steven M. Glover and Douglas F. Prawitt. Audit and assurance services. Third international edition. Mc Graw Hill education. Printed and bound in Great Britain by Ahford Colour Press Ltd. –P 707
3. Alvin A. Arens, Randal J. Elder, Mark S. Beasley. Auditing and assurance services: an integrated approach / 2010 by Pearson Education, Inc. – Fifteenth edition – P 843
4. В. Панина, Л.С. Коробейникова, С. Н. Коменденко. Основы аудита / Учебник – Вороноёж.: Издательский дом ВГУ, 2023. – С 379
5. Rick Hayes Roger Dassen Arnold Schilder Philip Wallage. Principles Of Auditing
6. An Introduction to International Standards on Auditing / textbook. Second edition published by Pearson Education Limited © Pearson Education Limited 2005. – P 692
7. Keshari, Chinmaya, Sahoo, Muvvala, Sudhakar, Venkata, Ramana, Satyanarayana, Kanhu, Charan, Panda (2018). Validation of Analytical Procedures- A Review.
8. ifac.org/system/Åles/downloads/2008_Auditing_Handbook_A140_ISA_520.pdf.
9. <https://analystprep.com/cfa-level-1-exam/financial-reporting-and-analysis/common-size-cash-flow-statements/>
10. Joanne M. Flood. Wiley Practitioner's Guide to GAAS 2016: Covering all SASs, SSAEs, SSARSs, PCAOB Auditing Standards, and Interpretations. USA.: 2016. John Wiley & Sons, Ltd. –P 229.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
